


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60320300 - Arxivshunoslik ta’lim yo‘nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent 2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti;
- O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil «25» iyun dagi 218 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doirasi (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.....	6
3.	Amaliyotga qo'yilgan talablar.....	6
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	7
	Bibliografik ma'lumotlar.....	8
	Kelishuv varag'i.....	10

1. Umumiy tavsifi

60320300 - Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qollanilishi 60320300 – Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

60320300 - Arxivshunoslik bakalavriat ta'lim yo'nalishi – ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasining yo'nalishi bo'lib, jamiyat rivojlanishining barcha qirralarini aniq o'rganish, jamiyat istiqbolini belgilash, arxiv sohasini rivojlantirish, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasi bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi tizimidagi davlat arxivlari va ularning hududiy filiallari; arxivshunoslik bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari; tarixiy, madaniy, ma'naviy merosni o'rganish markazlari; davlat boshqaruvi organlari idoraviy arxivlari; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari departamenti hududiy markazlari; davlat muzeylari, kutubxonalar va axborot-resurs markazlari; zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari qo'llanadigan ish yuritish sohalari.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *tashkiliy-boshqaruv.*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish:*
- *axborot-tahiliy faoliyat;*
- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *turli xizmatlar ko'rsatish*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60320300 - Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda arxiv sohasining rivojlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

arxiv tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi arxiv sohasidagi yutuqlarini o'rganish va tizimlashtirish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:

arxiv muassasalarida ishni tashkil qilish va boshqarish;

bilimlarni qo'llash orqali arxivlarni boshqarish;

tashkilot, korxona va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

arxivshunoslik, hujjatshunoslikka doir masalalarni hal etishga doir ilmiy metodlar va modellar ishlab chiqish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

arxiv tashkilotlarining tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish.

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

nodavlat va notijorat tashkilotlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha menedjer sifatida faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

arxiv tashkilotlarining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, arxivlarda ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

arxivlarning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, arxivlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lish;

gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

O'zbekistonda arxiv ishi jahon arxivlari tarixi, ish yurtish tizimini hamda Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;

tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;

insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lish;

ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlash;

tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

tarix ixtisosligiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert sifatida qatnashish;

tadqiq qilingan obyektlar bo'yicha maxsus yo'l ko'rsatkich yaratish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lish kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malaka amaliyoti – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Arxiv-tanishuv amaliyoti.
2. Ish yuritish o'quv-tanishuv amaliyoti.
3. Arxeografik ishlab chiqarish amaliyoti.
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4920	164	
1.01	UY1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FL1304	Falsafa	120	4	3
1.03	UR1104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.04	XT1204	Xorijiy til	120	4	2
1.05	DN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.06	JS1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	AK1106	Arxivshunoslikka kirish	180	6	1
1.08	EU1122	Eski o'zbek yozuvi	510	17	2, 3, 4
1.09	UA3604	O'zbekistonda arxiv ishi tarixi	330	11	1, 2
1.10	UD1116	O'zbekistonning davlat muassasalari	480	16	1, 2, 3
1.11	AI1211	Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti	330	11	2, 3
1.12	JA2316	Jahon arxivlari tarixi	480	16	3, 4, 5
1.13	AV3606	Audiovizual materiallar manba sifatida	180	6	6
1.14	RM2412	Raqamli manbalar va elektron arxiv asoslari	360	12	4, 5
1.15	AT1406	Arxiv sohasida texnologiyalar	180	6	4
1.16	MA2405	Maxsus arxivshunoslik fanlari	150	5	4
1.17	AH3604	Arxiv huquqi	120	4	6
1.18	IY3606	Ish yuritish asoslari	180	6	6
1.19	MK4706	Muzeyshunoslik va kutubxonashunoslik	180	6	7
1.20	AH4706	Arxiv hujjatlarini saqlash, tiklash va qayta ishlov berish	180	6	7
1.21	AM3506	Arxiv manbashunosligi va tarixshunosligi	180	6	5
1.22	AS4706	Arxiv sohasida ilmiy tadqiqot usullari	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1200	40	4, 5, 6, 7
Kvalifikatsiya arxivshunos, arxivchi-ish yurituvchi.					
		Jami	6120	204	
		Malaka amaliyoti	840	28	2, 4, 6, 8
		BMI (Yakuniy davlat attestatsiyasi)	240	8	8
		Jami	1080	36	
		HAMMASI	7200	240	

* Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malakaviy amaliyot ta'lim jarayonining tegishli qismida uzluksiz 15 hafta hajmida belgilanadi. 15 haftalik malakaviy amaliyot ma'lum bir semestrda to'liq hajmda qo'yilgan taqdirida fanlar katalogida ushbu semestrda o'quv fanlar mashg'ulotlari belgilanmasligi lozim (Masalan, malakaviy amaliyot to'liq 6-semestrda qo'yildi, bu holda fanlar katalogining 6-ustunida birona o'quv fani qatorida 6-semestr qayd etilmaydi. 6-semestr faqat "Malakaviy amaliyot" qatorida ko'rsatiladi).

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar: kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, Elektron arxiv asoslari, xronologiya, metrologiya, arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti, jahonning yetakchi arxivlari, ish yuritish nazariyasi va amaliyoti, O'rta Osiyoda arxiv ishi tarixi, O'zbekistonning asosiy arxivlari, eski o'zbek yozuvi, maxsus tarixiy fanlar, tarixiy geografiya va atamashunoslik, hujjatshunoslik, arxiv menejmenti, arxiv hujjatlarini saqlash, qayta ishlov berish, tiklash ishlari, arxiv huquqi, manbashunoslik, tarixshunoslik, muzeyshunoslik, texnotron hujjatlar.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti



Rektor Sherzodxon Qudratxo'ja

2024 yil « »

O'zbekiston Milliy universiteti



Rektor I.U. Madjidov

2024 yil « »

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor M. Boltabayev

2024 yil « »

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi huzuridagi "O'zarxiv"
agentligi

Direktor U.M. Yusupov

2024 yil « »

M.O'.



Namangan Davlat universiteti

Rektor S.T. Turg'unov

2024-yil « »



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
60320300 - Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv
rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori Sherzodxon Quدراتxo'ja, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O'zarxiv” agentligi direktori U.M. Yusupov, O'zbekiston Milliy universiteti rektori I.U.Madjidov birgalikda O'zMUDA ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60320300 - Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori

Sherzodxon Quدراتxo'ja

O'zbekiston Milliy universiteti rektori

I.U. Madjidov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O'zarxiv” agentligi direktori

U.M. Yusupov

**Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan
60320300 - Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishining
MALAKA TALABIGA
TAQRIZ**

Fan va texnologiya rivojlanayotgan bir paytda arxivshunoslik sohasidagi faoliyat turlari ko'paymoqda. Mamlakatimizda arxiv muassasalarida ishni tashkil qilishda chet el ilg'or tashkilot tajribalarini chuqur o'rgangan holda yondashish, mavjud standart va hujjatlarning har bir jihatlarini sinchkovlik bilan tadqiq etish maqsadga erishishni ta'minlaydi.


60320300 - Arxivshunoslik bakalavriat ta'lim yo'nalishi ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasining yo'nalishi bo'lib, jamiyat rivojlanishining barcha qirralarini aniq o'rganish, jamiyat istiqbolini belgilash, arxiv sohasini rivojlantirish, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasi bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi. Shuningdek, bu yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, "O'zarxiv" agentligi tarkibiga bo'ysunuvchi Respublika markaziy, viloyat, tuman, shahar arxivlarida va nodavlat arxivlarda joriy ishlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu malaka talablari o'quv rejaga mos keladi va fanlarga ajratilgan soatlar mutanosib taqsimlangan.

Islom Karimov nomidagi TDTU

"O'zbekiston tarixi" kafedrasi mudiri

prof. R.E. Holiqova



**Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan
60320300 - Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishining
MALAKA TALABIGA
TAQRIZ**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 60320300 - Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari tayyorlandi.

Ushbu malaka talablari bilan tanishish natijasida quyidagi vazifalarni e'tiborga olinganligini ta'kidlash mumkin:

- Mazmunan taqdim etilgan malaka talabi "60320300 - Arxivshunoslik" ta'lim yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali va chuqur bilimli mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi;

- malaka talabida keltirilgan fanlar o'zining dolzarbligi va ahamiyati bilan ifodalanadi. Ushbu fanlar turli arxivshunoslik sohasining dolzarb masalalarini yoritib berishga qaratilgan;

- taqdim etilgan malaka talabida bo'lajak arxivshunos mutaxassisning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar aniq belgilab berilgan;

- malaka talabi ilmiylik va uslubiyat talablarini hisobga olgan holda tayyorlangan. Unda xorijiy mamlakatlarning tajribasidan unumli foydalanilgan;

- malaka talabi bo'yicha o'quv jarayoniga tadbqiq etilishida ko'zlangan fanlarning mazmuni aniq ko'rsatib berilgan;

- malaka talablari negizida tayyorlangan mutaxassislarning bilim va kasbiy maxoratga ega bo'lishiga zamin yaratilgan.

Malaka talabi dunyoning yetakchi oliy o'quv muassasalari tajribalarini atroflicha o'rganib, mahalliy tajriba, talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilganligi mazmunida aks etgan.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayanib shuni e'tirof etish lozimki, 60320300 - Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari qo'yilgan talablarga to'la javob beradi va uni o'quv jarayoniga tadbqiq etish mumkin.

**O'zbekiston Milliy universiteti
Tarix fakulteti "Arxeologiya"
kafedراسi mudiri**



prof. v.b. F.B. Ochildiyev